

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA ZAMONAVIY KASBLAR HAQIDA MA’LUMOT BERISH

Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna

Angren shahar 40-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o‘rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to‘g‘ri yo‘naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo‘llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: To‘g‘ri kasb tanlash, ijtimoiylashtirish, o‘z-o‘zini baholash, texnologik ta’lim, uzluksiz tizim, hamkorlik, fanlararo aloqadorlik, muammolar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to‘g‘ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo`yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajaras, O`zbekiston xalq xo`jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shart-sharoitlari, vositalari, fani, maqsadi bo`yicha shajaralanishi, o‘quvchilarni o`z qiziqish va moyilliklari, o`z xarakterining o`ziga xos xususiyatlarini, o`z nerv tuzilishi, psixikasi, o`z qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar to`frisida ma’lumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o`zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbiga mos kelishi, hududda joylashgan o`rta maxsus, kasb-hunar o`quv yurtlarida ta’lim yo`nalishini ixtiyoriy tanlashi; o`qishni davom ettirish imkoniyatlari. Kelgusi mavqeini bilishi zarur.

Joriy yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg'onaga tashrif chog'ida Xalq ta'limi vazirligiga alohida ko'rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tib, yangi o'quv yilidan 7 sinfdan boshlab o‘quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Prezidentning Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatovga bergen ko'rsatmasiga ko'ra 20202021 o'quv yilidan 7 sinfdan boshlab o‘quvchilar kasb-hunarga yo'naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo'lishi aniqlanadi. 8, 9, 10 sinfga qadar ular o'zlari tanlangan kasb-hunar bo'yicha o'qitilib boriladi. 10 sinfda ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. 11 sinfda esa o‘quvchilar bir vaqtning o'zida korxona va tashkilotlarda rasmiy tarzda ishlab oylik maosh olishlari ham mumkin bo'ladi. 11 sinf bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga hokimlar va hududiy sektor rahbarlari javobgar hisoblanadi. [5,1-b].

Ushbu kursatmadan kurinib turibdiki yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yunaltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u mактабдан oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, mактаб rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda hosil bo'ladi. Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

- turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda mактабдан tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;
- o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash;
- jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o'quvchilarning qiziqishlarini tabaqlashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;
- o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, mактаб o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda

tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish. Bunday hamkorlik natijasida o'quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan kasblar targ'ibotini amalga oshirish imkoniyatini paydo bo'ladi.

Kasbga yunaltirishni qachondan boshlash kerak? degan savolga quyidagi diagrammadagi ko'rinishda javoblar olindi. O'quvchilarning 57 %i maktabdanoq kasbiy yo'naltirishni amalga oshirishni boshlash kerak deb hisoblaydi. O'quvchilarning 22 %i buni bog'cha paytidan boshlash kerak, 14 %i esa tanlash bosqichini kolledjdan boshlash kerak deb hisoblaydilar. [4,2-b].

Kasbga yo'naltirishni kim amalga oshirishi kerak degan savolga o'quvchilarnin javobi qo'yidagicha taqsimlandi: psixologlar (32 %), o'qituvchilar (28%) va ish beruvchilarning o'zlari (13%). Bundan tashqari, 13%i bu ishni aholi bandligini ta'minlash markazi zimmasiga topshirish kerak degan fikrni bildirishgan. "Boshqa" javob variantini tanlagan ishtirokchilarning 14%i, quyidagi javob variantlarini berdilar: ota-onalar, shaxsning o'zi, yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi, ota-onalar o'qituvchilar bilan birgalikda, ushbu masalada ko'plab tuzilmalarning integratsiyalashgan yondashuvi va sherikligi bo'lishi zarur. [4,3-b],

Faoliyatim davomida bunday surov nomida va anketalarning bir qanchasini o'tkazdim. Ko'rinib turibdiki maktab o'quvchilarini kasb tanlashida o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini ahamiyati juda katta.

Muammaolar. Prezidentimizning "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualari (O'ICHM) yoshlarimizni kasbga o'rgatish vazifasini lozim darajada bajarmaganligi sababli haqli ravishda tugatilmoqda.

Nega? Chunki, ayrim hududlarda tashkil etilgan O'ICHM bilan biriktirilgan maktablar o'rtasidagi masofa o'rtacha 8-12 km, ba'zilari 40 km masofagacha uzoqlikda joylashgan edi. Bu esa o'z navbatida transport qatnovida ham muammolarni keltirib chiqarardi.

O'ICHMLaridagi yana bir salbiy holat bu, pedagog-xodimlarning yetishmasligida edi, ya'ni ayrim kasblar bo'yicha joylarda nomutaxassis kadrlarga o'quv yuklamalari asossiz ravishda belgilandi yoki umuman darslar o'tilmagan holatlar ham kuzatildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aynan shuning uchun zamonaviy bilim olish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib borish, oddiy qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarni

kasb tanlashga, ularni ijodiy fikrlashga, yoki konstruksion buyumlardan materiallar yasash, oddiygina elektr chirog‘i patronini o‘rnatish, uydagi suv tarmoqlari tizimlari to‘g‘risida, shuningdek, oddiy yog‘ochga ishlov berish, uy ro‘zg‘orda kichik ta’mirlash ishlari va hokazolar kabi hayotiy kasbiy ko‘nikmalarni to‘liq yetkazib berolmayotganligimiz hech kimga sir emas.

Biz yoshlar tarbiyasida “Texnologiya” faniga hayotiy ehtiyoj sifatida qarashimiz bilan o‘quvchini betartiblik va dangasalik kasalliklariga chalinishini oldini olibgina qolmay, uning kelajakdagi ma’lum bir kasb egasi bo‘lishiga zamin yaratamiz. Aks holda o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z holiga tashlab qo‘yilganda mehnatga bo‘lgan tabiiy intilishi so‘nadi va o‘z mehnatidan qanoat hosil qilishni esa o‘yin-kulgidan qidira boshlaydi. O‘yin-kulgida rivojlangan ehtiyoj mehnatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni batamom siqib chiqarishi moddiy va ma’naviy qashshoqlikka olib keladi.

Yechimlari. O‘quvchi yoshlarga mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirib borish maqsadida Rossiyada “Texnologiya” fani o‘quv dasturi mazmuniga “Konstruksion buyumlardan materiallar yasash” (22 soat), “Chizmachilik va grafika” (10 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbiy ko‘nikmalari shakllantirilsa, Belarus mакtablarida esa ”Veb-saytlarni yaratish va konstruksiyalash” (6 soat), “Tadbirkorlik asoslari” (10 soat) kabi mavzular, Qozog‘istonda “Yog‘ochga qo‘lda ishlov berish” (7 soat), “Metallarga qo‘lda ishlov berish” (8 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekistonda esa “Texnologiya” fani 8-9-sinflar uchun haftasiga 1 soatdan o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 10-11-sinflarda esa joriy etilmagan. Rivojlangan xorij mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim tizimida 10-11-sinf o‘quvchilari uchun “Texnologiya” fanini kiritish hamda unga haftasiga kamida 2 soatdan jami 136 soat ajratish, o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o’tishishimiz joizki yoshlарimizni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta’kidlab o‘tmоqchiman . Inson to‘g‘ri kasb tanlash orqali o‘z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

Foydalанilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasida O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirish tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi. –Toshkent: O‘quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.
2. Boltaboev S.A. Tolipov O‘.Q. Umumiy O‘rta ta’lim maktablari kasbga yo`naltirish O‘quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo`yicha metodik tavsiyanoma. –Toshkent: TDPU, 2000. 36 b.
3. Davletov K.D. va b. O‘quvchi yoshlarni ishga va ishlab chiqarishga tayyorlash. -T.: O‘qituvchi, 1984. 167 b.
4. JO`raev R.X., Tolipov O‘.Q., SHaripov SH.S. Uzluksiz ta’lim tizimida O‘quvchilarni kasb-hunar yo`naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.: FAN. 2004. 120 b.